

IMIJOLOGIYA FANI VA BUGUNGI KUNDA UNGA BO'LGAN MUNOSABATLAR

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
Xavfsizligi universiteti magistranti
Ergashev Jo'rabek Xalilovich*

Annotatsiya:

Mazkur maqola imjiologiya fanining mohiyati, uning shakllanish tarixi va bugungi kundagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Imjiologiya fani inson imiji va imijni yaratish jarayonlarini o'rganish bilan birga, uning shaxsiy va ijtimoiy hayotga ta'sirini tahlil qiladi. Hozirgi davrda imij yaratish texnologiyalari, raqamli kommunikatsiyalarning rivojlanishi va ommaviy axborot vositalarining ta'siri natijasida fan o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda. Maqolada imjiologiya sohasidagi zamonaviy yondashuvlar, ularning psixologiya, sotsiologiya va marketing bilan uzviy bog'liqligi ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari orqali biz shaxsiy va korporativ imijni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy jamiyatda ushbu fan mavqeining oshib borayotganini tasdiqlashga harakat qildik.

Kalit so'zlar: Imjiologiya, imij, tadqiqot, koorparativ imij, guruhiy imij, kommunikatsiya, shaxsiy imij, tashqi ko'rinish, zamonaviy imij, shaxsiy brend, ishlab chiqarish korxonalari va boshqalar.

Abstract:

Three articles are devoted to the study of creation science, the history of its formation and its importance today. The science of imagiology is the study of the human image and image processes, as well as its impact on personal and social life. The development of science imaging technologies is currently the result of the development of digital technologies and the impact of information retrieval. The article examines possible connections of imaginology with healthy systems, legal psychology, sociology, and marketing. Through research support, we have helped to control the movement of this science, which has important security in controlling our personal and corporate bodies, in modern society.

Key words: Imageology, image, research, cooperative image, group image, communication, personal image, appearance, modern image, personal brand, production enterprises, etc.

Абстрактный:

Три статьи посвящены изучению креационистской науки, истории ее становления и ее значения сегодня. Наука имагиология занимается изучением образа человека и процессов изображения, а также его влияния на личную и общественную жизнь. Развитие технологий научной визуализации в настоящее

время является результатом развития цифровых технологий и воздействия поиска информации. В статье рассматриваются возможные связи имажинологии со здоровыми системами, юридической психологией, социологией и маркетингом. Благодаря поддержке исследований мы помогли контролировать движение этой науки, которая имеет важную безопасность в контроле над нашими личными и корпоративными телами, в современном обществе.

Ключевые слова: Имиджология, имидж, исследование, кооперативный имидж, групповой имидж, коммуникация, личный имидж, внешний вид, современный имидж, личный бренд, производственные предприятия и т.д.

Kirish: Bugungi globallashuv davrida davlatlarning jahon hamjamiyatidagi oʻrni nafaqat ularning iqtisodiy, siyosiy va harbiy kuchi bilan, balki milliy imijlari bilan ham belgilanmoqda. Shaxsiy va jamoaviy imijning muhimligini tushunish, uni boshqarish va rivojlantirish zamonaviy jamiyat uchun dolzarb masalalardan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan, imijologiya fani- shaxs, tashkilot va davlatlarning ijtimoiy va madaniy maydondagi obroʻsini shakllantirishni oʻrganuvchi sohasi- tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oʻz nutqlarida milliy imijni mustahkamlash va uni xalqaro maydonda targʻib qilishning dolzarbligini qayta-qayta taʼkidlab kelmoqda. Uning: “Yangi Oʻzbekistonni dunyo tanishi uchun biz avvalo oʻzimizni anglashimiz, milliy qadriyatlarimizni saqlagan holda ulkan yutuqlar sari harakat qilishimiz zarur”, degan soʻzlari davlat imijini shakllantirish jarayonida ichki barqarorlik va milliy gʻururning naqadar muhim ekanligini koʻrsatadi.

Imijologiya nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatning asosi, balki davlatlararo aloqalarda ham strategik vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. Milliy imijni mustahkamlash orqali davlatning xalqaro obroʻsi oshadi, xorijiy investorlar va sayyohlarni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi. Shu maʼnoda, Prezidentimizning: “Bizning asosiy maqsadimiz – xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladigan, ochiq va shaffof siyosatni amalga oshirib, Yangi Oʻzbekistonning obroʻsini xalqaro miqyosda yuksaltirishdir”,¹ degan soʻzlari imijologiya fanining zamonaviy davlat siyosatidagi ahamiyatini ochib beradi. Ushbu maqolamiz imijologiyaning nazariy asoslari va amaliy yoʻnalishlarini, shuningdek, raqamli davrda unga boʻlgan qarashlarni tahlil qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, davlat miqyosida imijni shakllantirish va rivojlantirishda milliy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalarning oʻzaro uygʻunligi masalalari ham yoritiladi. Bu tadqiqot davlat va shaxslar imijini muvaffaqiyatli boshqarish strategiyalarini aniqlashda ilmiy va amaliy asos boʻlib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili: Imijologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi koʻplab ilmiy tadqiqotlar va nazariy ishlanmalar natijasida amalga oshgan. Ushbu fan turli

¹ <https://lex.uz/acts/-4872355>.

ilmiy sohalar: psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, marketing va kommunikatsiya nazariyalari bilan uzviy bog'liq. Adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, imij tushunchasining nazariy asoslarini izohlashga doir tadqiqotlar asosan XX asrning o'rtalarida rivojlana boshlagan. Psixologiya sohasida imijni shaxsning o'zini namoyish etish shakli sifatida talqin etish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, A. Adler va K. G. Yung kabi olimlar shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy o'zaro ta'sirda imijning rolini alohida ta'kidlab o'tganlar. Boshqa tomondan, sotsiologik yondashuvda T. Parsons va E. Goffman ishlarida imij ijtimoiy strukturadagi rollar va o'zaro muloqot jarayonlari orqali ko'rib chiqilgan. Zamonaviy davrda marketing va PR sohasida imij yaratishning strategik usullari o'rganilgan. D. Aaker va P. Kotler tadqiqotlari brend imijini shakllantirishda psixologik va sotsiologik omillarning ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotlar korporativ va shaxsiy imij yaratish jarayonida marketing vositalarining roli va ularning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Raqamli kommunikatsiyalar davrida imijologiya bo'yicha tadqiqotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Jumladan, virtual imijni boshqarish, raqamli platformalarda shaxsiy va tashkilot imijini yaratish masalalari R. Kaplan va D. Haenlein ishlarida batafsil yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq muammolar masalan, yolg'on imij (fake image) va uning ijtimoiy oqibatlarini haqida ham tadqiqotlar olib borilmoqda.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, imijologiya nafaqat nazariy asoslarga, balki amaliy yo'nalishga ham ega. Bu esa uning shaxsiy rivojlanish, tashkilotlar boshqaruvi va jamiyatdagi kommunikatsiya jarayonlaridagi ahamiyatini oshiradi. Shu bilan birga, bugungi kunda ushbu sohada mavjud muammolarni hal etish va yangi yondashuvlarni shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar davom etmoqda.

Muhokama: Imijologiya bugungi kunda shaxs va tashkilotlarning ijtimoiy maydondagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida ko'rilmogda. Ushbu fan nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki davlat boshqaruvi, biznes strategiyasi va madaniy aloqalar kabi ko'plab sohalarda qo'llanilmogda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: "Yangi O'zbekistonni dunyoga tanitish uchun biz, avvalo, o'zimizni, milliy qadriyatlarimizni, madaniyatimizni namoyon etishimiz kerak",² degan so'zlari imij yaratishning milliy va xalqaro ahamiyatini yanada yoritib beradi. Bugungi kunda davlat miqyosida milliy imijni shakllantirish va uni xalqaro miqyosda targ'ib qilish strategik ahamiyatga ega. Bu jarayonda nafaqat rahbarlar, balki har bir fuqaroning faol ishtiroki zarur. Shaxs va millat imijini yaratish bir-biriga uzviy bog'liq jarayon bo'lib, davlatning ichki va tashqi siyosiy muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Imijologiya davlat boshqaruvida ham muhim o'rin tutadi. Rahbarlarning nutqlari, qaror qabul qilishdagi ochiqligi va xalqqa yaqinligi davlatning ijobiy imijini

² <https://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m8498>.

shakllantiradi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: “Hokimiyat xalq bilan muloqot qilish orqali, ochiq va shaffof ishlash orqali o‘z obro‘sini oshiradi”, degan fikrlari davlat imijini shakllantirishning asosiy mezonlarini belgilaydi. Muhokamalar jarayonida yana bir muhim masala- raqamli asrda imij yaratish muammolari va imkoniyatlari. Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxsiy yoki tashkilot imijini tezkorlik bilan yaratish mumkin, ammo bu jarayonda xatarlar ham mavjud. Masalan, yolg‘on axborotlar, manipulyatsiya va raqamli ta’sir orqali sun’iy imij yaratish holatlari ko‘paymoqda. Shu sababli, imijologiya fanining zamonaviy yondashuvlari nafaqat ijobiy imij yaratishga, balki uning ishonchliligini ta’minlashga ham qaratilishi kerak. Muhokamalarimizni umumlashtiradigan bo‘lsak, imijologiya zamonaviy jamiyatning rivojlanishida, davlatlar va tashkilotlarning ijtimoiy obro‘sini oshirishda muhim vosita bo‘lib qolmoqda. Bugungi kun sharoitida imij yaratish shaxsiy rivojlanishdan tortib, milliy manfaatlarni himoya qilishgacha bo‘lgan keng ko‘lamdagi vazifalarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, ushbu jarayonlarda o‘z-o‘zini takomillashtirish va axborot oqimlarini nazorat qilishga qaratilgan strategik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Imijologiya fani zamonaviy jamiyatda shaxs va tashkilotlarning ijtimoiy muvaffaqiyati, madaniy o‘zaro ta’sir va global aloqalar jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada fan asoslari, uning rivojlanish yo‘nalishlari va bugungi kunda unga bo‘lgan qarashlar o‘rganildi. Shaxsiy va milliy imijni shakllantirish, ularni raqamli muhitda samarali boshqarish zamonaviy texnologiyalar va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi bilan yanada dolzarblashgan. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning milliy imijni xalqaro maydonda targ‘ib qilishga qaratilgan sa’y-harakatlari imijologiya davlat siyosati darajasida qanday ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Uning: “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi har bir fuqaroning manfaatlari, huquqlari va farovonligi uchun xizmat qilishi kerak”, degan so‘zlari davlat imijining xalqaro maydonda muvaffaqiyatli shakllanishi uchun ichki barqarorlik va rivojlanish zarurligini tasdiqlaydi. Bugungi sharoitda imijologiya nafaqat nazariy tadqiqotlar, balki amaliy yondashuvlarni ham o‘z ichiga oladi. Shaxsiy va tashkilot imijini boshqarish, brendlar uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish, shuningdek, davlatlarning xalqaro imijini yaxshilashga qaratilgan ishlar mazkur fanning dolzarbligini oshiradi. Shu bilan birga, imijologiya zamonaviy masalalaridan biri yolg‘on axborot va manipulyatsiya orqali imijni boshqarishga qarshi choralarni ishlab chiqishdir. Kelajakda imij yaratish texnologiyalari yanada rivojlanib, uning jamiyatdagi o‘rni kuchayishi kutiladi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, imijologiya nafaqat shaxslar va tashkilotlarning muvaffaqiyatini ta’minlash vositasi, balki millatlararo aloqalarni mustahkamlash, global muammolarni hal etishda ham muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, ushbu fanning

rivoji davomida ilmiy va amaliy tadqiqotlarni kengaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev, Sh. M. (2017). Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston.
2. To'laganov, O. (2020). Shaxs imiji va uni shakllantirishning psixologik asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
3. Abduqodirov, A. A. (2019). Raqamli davrda milliy imij va global kommunikatsiya. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.
4. Nurmatova, D. Sh. (2021). Korporativ imijni boshqarish: nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisodiyot universiteti nashriyoti.
5. Rasulov, H. R. (2020). "Imijiologiyaning psixologik va sotsiologik jihatlari". Milliy tadqiqotlar to'plami, 3(5), 12-19.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti – president.uz
7. O'zbekiston Milliy kutubxonasi – navi.uz
8. Xalqaro aloqalar va milliy imij bo'yicha tahlillar – ziyonet.uz.